

AVIATSIYAGA OID TERMINLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Xaydarova Zulfiniso Zaylobidin qizi

FarDU magistranti

Elektron pochta: xaydarovazulfiniso@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada aviatsiya atamalarining xususiyatlari, ularning faoliyati va terminologiya tizimi shuningdek, matn doirasidagi tasnifi muhokama qilinadi. Ushbu ishning dolzarbligi shundaki, aviatsiya tarjimonlarining mashhurligi va talabi, ushbu sohani o'rganishning murakkabligi, aviatsiya tarjimasi muammosini o'z ichiga olgan tadqiqot ishlarining yetishmasligi, shu jumladan aviatsiya terminlari bilan ishlashda nafaqat tarjimonga hujjatlarni yoki muzokaralarni manba tilidan maqsadli tilga tarjima qilishda yordam beradigan lug'atlarni tuzish, balki ularning kontekstda ishlash xususiyatlarini tushunish ham muhim hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:** aviatsion atamalar, aviatsiya, aeroport, ekipaj, styuardessa, samalyot, leksik xususiyat, terminologiya.*

KIRISH

Hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonning, balki butun dunyo davlatlarining ham yuksak darajada rivojlanishiga ulkan hissa qo'shayotgan sohalardan biri bu – aviatsiyadir. Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti, ularning alohida tarmoqlarining rivojlanishi barcha sohalar singari tilshunoslikda ham o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda ilm-fanning barcha sohalarida erishilgan sezilarli yutuqlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar oqimining tobora ortib borishi sohalarga oid terminlar muammosi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy jihatdan yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Bundan tashqari, boshqa sohalar kabi aviatsiya sanoatining ham rivojlanishi, aviatsiya texnologiyalari tizimlarining murakkablashuvi aviatsiya faoliyati sohasida terminlar tadqiqi muammosiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Hech kimga sir emaski, aviatsiya texnologik jihatdan jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, uning samaradorligi aviatsiya tarmog'i doirasida faoliyat yuritadigan xodimlarining kasbiy mahorati va malakasiga bog'liq hisoblanadi. Shu sababli ushbu keng qamrovli soha bilan o'z kelajagini barpo etmoqchi bo'lganlar va ayni shu jabhada faoliyat olib boruvchilar chuqur bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lish bilan bir qatorda soha doirasida qo'llaniluvchi til xususiyatlari va unda qo'llaniluvchi so'zlardan nutqiy jarayonda to'g'ri foydalanish, ularning tarkibiy jihatdan qanday tuzilganligi va shu kabilarni ham batafsil o'rganmog'i ahamiyatli jihatlardan biridir. Ushbu maqola ham aynan shu jihatlarni ochib berishga qaratiladi.

ASOSIY QISM

Til insonni o'rab turgan voqelikni, moddiy va ma'naviy madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlarni aks ettiradi. Tilning eng muhim funksiyalaridan biri kommunikativ bo'lib, inson faoliyatining barcha sohalarida muloqotni ta'minlaydi. Har kuni, kundalik muloqot tilning so'zlashuv-so'zlashuv va adabiy-so'zlashuv shakllaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Maxsus kasbiy muloqot - fan va texnika tili orqali, tabiiy tilning maxsus shakli. Adabiy til lug'atlari keng tarqalgan so'zlarni o'z ichiga oladi, ya'ni ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lgan so'zlar. Biroq, keng tarqalgan so'zlardan tashqari, tilda xalq xo'jaligi, fan, texnika va madaniyatning turli sohalariga xizmat qiluvchi juda ko'p atamalar mavjud.

Mavzuga chuqurroq yondashishdan oldin termin atamasiga e'tibor qaratishni lozim topdik. Termin – bu ma'lum bir fan sohasi doirasida qo'llaniladigan maxsus tushunchalarni anglatuvchi so'z yoki so'zlar birikmasidir. Dunyo olimlarining ushbu atamaga doir fikr va qarashlarini ko'rib chiqamiz.

Fanda "termin" tushunchasi asosan XX asr boshlarida shakllangan. "Termin" so'zining birinchi talqinlari "Entsiklopedik lug'at"da F.A. Brokxaus va I.A. Efron kabilardir. Keyinchalik ilmiy-texnikaviy inqilob axborot-kommunikatsiya

jarayonlarining jadallashuviga olib keldi, bu esa turli bilim sohalaridagi atamalarning tez miqdoriy o'sishiga va umumiy tilga faol kirib borishiga olib keldi. Ushbu jarayonlar "Terminologik portlash" deb ataladi. Ularning sabablari:

1. Ko'p ma'nolilik va atamalarning noaniqlik hodisalari, ularning semantik va grammatik tuzilishining murakkabligi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab bilim sohalarida noqulay terminologik vaziyat.

2. Yangi paydo bo'layotgan ilmiy-texnikaviy ob'ektlarni ko'rsatish uchun yangi atamalar yaratish zarurati.

3. Zamonaviy axborot tizimlarining terminologik ta'minotini yaratish zarurati: avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari.

4. Tarjima, o'quv va amaliy, kasbiy ishlar uchun terminologik lug'atlarga ehtiyojning ortishi.

"Terminologik portlash" ning cho'qqisi 80-yillarda sodir bo'lgan (bu mavzuga bag'ishlangan 2000 ga yaqin bosma nashrlar). O'zbek tilida yangi ilmiy fan - terminologiya paydo bo'ldi, uning ob'yekti atama, uning kommunikativ jarayonlardagi semantik va grammatik roli kattadir.

Tilning lug'at tarkibiga aloqador barcha birliklar (masalan: so'zlar, frazeologizmlar) lug'aviy birliklar deyiladi. Lug'aviy birliklar anglatgan ma'nolarning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ma'lum tematik turlarga bo'linadi. Leksikologiya so'zlarning hosil bo'lishi, lug'at tarkibining boyishi va nutqi, ishlatilishi, ma'nolarning o'zgarishi, torayishi va kengayishi, turli atamalarning qo'llanilishi kabi bir qator masalalarni qamrab oladi.

Aviatsiya keng tarmoqlarga ega soha bo'lganligi sababli unda ishlatiladigan har bir so'z leksik jihatdan o'z ichki tuzilishi va xususiyatlariga ega. Ana shu jihatlarni va so'zlarning atash yoki leksik ma'nolarini mazkur soha doirasida eng ko'p qo'llaniladigan va eng ko'p uchraydigan quyidagi atamalar misolida ko'rib tahlil qilishimiz mumkin:

1. Aviatsiya so'zi ilk bor 1863-yilda fransuz yozuvchisi va sobiq dengiz zobiti Gabriel La Landelle tomonidan fanga kiritilgan. U bu atamani avier fe'lidan olgan

(“uchish” soʻzi uchun muvaffaqiyatsiz neologizm), soʻzning oʻzi esa lotincha avis (“qush”) soʻzidan va -ation qoʻshimchasidan olingan boʻlib, havodan ogʻir apparatlarda fazoda uchish nazariyasi va amaliyoti; uchish apparatlarining majmui, havo floti degan maʼnolarni bildiradi.

2. Aeroport –yunoncha aer...+fransuzcha port < lotincha portus (bandargoh) soʻzlarining qoʻshilmasidan tashkil topgan boʻlib, havo liniyasi trassasida joylashgan va transport aviatsiyasining muntazam qatnovini taʼminlab turish uchun kerakli inshootlar bilan jihozlangan aerodrom degan maʼnolarni anglatadi.

3. Ekipaj (1570) – fransuzcha equipage (1520, équiper –moslashtirmoq, oʻrnatmoq; 12-asr, Qadimgi Fransuz tilidagi esquiper – kemaga oʻrnatmoq, bortga yuklamoq) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, odamlarni tashuvchi ot qoʻshilgan yengil arava, fayton; kema, kosmik kema, samolyot, tankning shaxsiy tarkibi; baʼzi davlatlar harbiy dengiz flotidagi sohil harbiy qismi kabi maʼnolarni anglatgan va kelayotgan madad kuchlarini qabul qilib joylashtirish va ularga xizmat koʻrsatishga moʻljallangan.

4. Samolyot (airplane 1907) - rus tilidan oʻzlashgan termin boʻlib, yaʼni самолёт soʻzi само (oʻzi) va летать (uchmoq, parvoz qilmoq) soʻzlarining birikishidan hosil boʻlgan. U motorli, qanotli, havodan ogʻir boʻlgan uchish apparati degan maʼnoni bildiradi.

5. Styuardessa (stewardess) – ingliz tilidan kirib kelgan boʻlib, steward soʻzi va -ess qoʻshimchalarining birikishidan hosil boʻlgan. Ushbu termin samolyot yoki kemalarda yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatuvchi shaxs degan maʼnoni bildiradi.

Ushbu ish jarayonida atamaning maʼnosi maxsus bilimlarni ifodalash usuli sifatida aniqlandi. Biz atamaning oʻziga xosligi, birinchi navbatda, uning asosiy vazifasi bilan toʻliq kesishadigan maxsus maqsadi - maxsus tushunchalarni iloji boricha aniq ifodalashda ekanligini aniqladik. Bu atama maʼlum bir qamrovga ega va shu bilan maʼlum bir terminologiyani tashkil qiladi.

XULOSA

Har bir terminologiya tizimi singari, aviatsiya ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Umuman olganda, aviatsiya atama tizimi texnik atama tizimiga eng yaqin deb aytishimiz mumkin, chunki u ma'lum darajada uning bir qismidir. Aviatsiya atamalari tizimining aviatsiya sanoatiga ham, texnik terminologiyaga ham xos xususiyatlarini aviatsiya sohasiga oid atamalarning xususiyatlarini, shuningdek tadqiqot davomida aniqlangan aviatsiya atamalarining tasnifini hisobga olgan holda kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulvohidova N. S., Qodirova M. T. Aviatsiyaga oid terminlarning inglizcha-o'zbekcha lug'ati – T: 2022.
2. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo`nalishlari. – T.: Ta`lim, 2009, 160 b.
3. Z. Xolmanova. Tilshunoslik nazariyasi : darslik.-Toshkent: Nodirabegim, 2019. – 260 b.
4. To`xliyev N., Shorahmedov D. A., Aminov M. N., Niyozov A. “O`zbek tilining izohli lug'ati” - T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 680 b.
5. [https://www.etymonline.com/word/airport#:~:text=airport%20\(n.,1\)](https://www.etymonline.com/word/airport#:~:text=airport%20(n.,1))
6. [https://www.etymonline.com/word/equipage#:~:text=equipage%20\(n.\),person%20in%20a%20small%20case](https://www.etymonline.com/word/equipage#:~:text=equipage%20(n.),person%20in%20a%20small%20case)
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ekipaj>